

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RO‘ZIQULOV SHERZODBEK MARIBJONOVICH**

**O‘ZBEKISTON SSR TA’LIM TIZIMIDAGI O‘ZGARISHLAR  
(1946-1991-yillar)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon-2025**

UO‘K: 94(575.1)“1946/1991”+37.014(09)(575.1)

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of abstract of doctor of philosophy (PhD) dissertation**

**Ro‘ziqulov Sherzodbek Maribjonovich**

О‘zbekiston SSR ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar (1946-1991-yillar) ..... 3

**Рузикулов Шерзодбек Марибжонович**

Изменения в системе образования Узбекиской ССР (1946-1991 гг.)..... 27

**Rozikulov Sherzodbek Maribjanovich**

Changes in the education system of Uzbek SSR (1946 -1991) ..... 53

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 57

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI  
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/31.12.2020.Tar. 60.01-RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**RO'ZIQULOV SHERZODBEK MARIBJONOVICH**

**O'ZBEKISTON SSR TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR  
(1946-1991-yillar)**

**07.00.01 – O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Andijon-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PHD/Tar1332 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta til (o'zbek, rus, ingliz (rezyume))da Ilmiy kengash veb- sahifasi (<http://kengash.edu.uz/tarix/>) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xoshimov Soibjon Abdurazzoqovich**  
tarix fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Bobojonova Dilorom Bobojonovna**  
tarix fanlar doktori, professor

**Alixojiyev Muhammadjon Odiljon o'g'li**  
tarix fanlar nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01.-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 25 04 soat 14-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil:170100, Andijon shahri Universitet ko'chasi 129-uy. Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti binosi, 1-qavat, 108-auditoriya. Tel.: (0374) 225-73-21; faks: (0374) 225-73-21; e-mail: agsu\_info@edu.uz \_ Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2043A raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri Universitet ko'chasi 129-uy. ARM binosi). Tel.: (0374) 225-84-33; Faks: (0374) 225-88-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "10" 04 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "08" 04 dagi 37 - raqamli reyestr bayonnomasi)



**R.T.Shamsutdinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**M.O.Alixojiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, t.f.n., dotsent

**U.S.Abdullayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonida boy va ko'rkam madaniy merosga ega bo'lgan mintaqalar tarixini o'rganishga bo'lgan qiziqish benihoya kuchaymoqda. Ayni vaqtda etnik nizolar, mojarolar, xavf-xatar va tahdidlar, qurolli bosqinlar, harbiy to'qnashuvlar, pandemiya (epidemiya), xalqaro terrorizm, shovinizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar yuz bermoqda. Ana shunday tahlikali sharoitda o'zining milliy mafkurasi va taraqqiyot strategiyasiga ega bo'lish har bir davlat uchun hayotiy ehtiyojga aylandi. Buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda, asosan, ta'lim sohasining o'rni beqiyosdir, bugun butun jahon ahli bunga guvoh bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, keyingi yillarda dunyoda ta'lim tizimi va uning rivojlanish tarixini o'rganish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda jahonning yetakchi ilmiy markazlarida sovet hokimiyati davrida SSSR tarkibidagi milliy respublikalarda kechgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlar, ularning madaniy hayoti hamda ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, sotsialistik mafkura ta'siri ostida shakllangan salbiy jihatlarni ham obyektiv va kompleks tarzda yoritishga qaratilgan salmoqli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar tarixiy haqiqatni tiklash, ta'lim tizimining siyosiy-mafkuraviy sharoitda qanday rivojlanganini tahlil qilishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. Eng muhimi, xorijiy ilmiy tadqiqotlarda sovet davri ta'lim tizimining ijobiy va salbiy jihatlarni tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan xolis va haqqoniy tahlil qilish zarurati tobora dolzarb tus olmoqda. Shu jihatdan olib qaralganda, O'zbekiston ta'lim tizimida Ikkinchi jahon urushidan to mustaqillikka erishilgunga qadar bo'lgan davr mobaynida yuz bergan o'zgarishlar, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni xolis ilmiy asosda o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalaga oid ilmiy xulosalarni amaliyotga tatbiq etish esa nafaqat tarixiy jarayonlarni to'g'ri baholash, balki hozirgi va kelajakdagi ta'lim siyosatini belgilashda ham muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish jarayonida Vatanimiz tarixining sovet hokimiyati yillarida kechgan tarixini ilmiy jihatdan o'rganish, undan tegishli xulosa va saboqlar chiqarish, butun xalqni, ayniqsa, yoshlarni chinakam tarix bilan qurollantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"<sup>1</sup>. Shuningdek, sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida erishilgan yutuq va muammolarni ham chuqur ilmiy asosda xolisona va adolat nuqtayi nazaridan o'rganish, uning ijobiy

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.29.

va salbiy jihatlaridan tegishli xulosa va saboq chiqarish bugungi ta'lim jarayonida islohotlar ketayotgan bir davrda yanada muhimdir. Mavzuning dolzarbligi va masalaga yangicha yondashuv hamda qarashlar asosida o'rganishning zarurligi ham ana shundadir.

Ushbu dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni<sup>2</sup>, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"<sup>3</sup>gi PF-6097-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari<sup>4</sup> va Respublikamiz hukumatining respublikada ta'limni rivojlantirish yuzasidan chiqargan ko'plab qaror va farmoyishlarida belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni bajarishga ham muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar tarixiga oid nashr etilgan manba va adabiyotlarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

1. Sovet hokimiyati yillarida chop etilgan adabiyotlar;
2. Mustaqillik davrida O'zbekistonda e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlar;
3. Xorijiy mamlakatlarda nashr etilgan ilmiy asarlar.

**Birinchi guruhga** mansub adabiyotlar sovet davrida yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlarning aksariyatida o'rganilayotgan tarixiy davr mobaynida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijalari, shuningdek, ta'lim tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar va malakali kadrlar tayyorlash borasidagi jarayonlar yoritilgan. Mazkur manbalarda davr ta'lim siyosatining asosiy yo'nalishlari, ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari hamda bu boradagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Sovet hokimiyati yillari davomida O'zbekistonda ta'lim tizimi va uning holatiga oid ko'plab ilmiy manbalar, jumladan monografiya, risola, ilmiy maqola,

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда қабул қилган "Таълим тўғрисида"ги ЎРҚ-637-сон Қонуни // <https://lex.uz>.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги "Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-6097-сонли Фармони // Халқ сўзи, 2020 йил 30 октябрь, №229 (7731).

<sup>4</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги Фармони // <https://lex.uz/docs/3107036>

hujjatlar to‘plamlari hamda xotira kitoblari chop etilgan<sup>5</sup>. Ushbu adabiyotlarda, xususan, Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda maorif sohasida yuzaga kelgan muammolar madamiy qurilishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida talqin etilgan. Tadqiqotlarda mazkur davr ta‘lim tizimining tarkibiy rivojlanishi, mavjud resurslar va kadrlar salohiyati bilan bog‘liq masalalar ilmiy asosda yoritilgan.

Mazkur davrda ta‘lim tarixi masalalariga, asosan, pedagog olimlar hamda ushbu soha bilan bevosita shug‘ullanuvchi amaliyotchilar murojaat qilganlar. Jumladan, I.K. Qodirov<sup>6</sup>ning ilmiy ishlari bu borada alohida e‘tiborga loyiqdir. Garchi uning tadqiqotlari sovet mafkurasi ta‘siri ostida yozilgan bo‘lsa-da, unda o‘rganilayotgan davr mobaynida O‘zbekiston xalq ta‘limi tizimida yuz bergan o‘zgarishlar, to‘plangan tajriba va erishilgan yutuqlar tizimli yondashuv hamda tarixiy-davriylik prinsipi asosida tahlil etilgan. Ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda ta‘lim sohasida ro‘y bergan yangiliklar va o‘zgarishlar muallif tomonidan atroflicha yoritilgan.

B.T. Degtyar va N.T. Hotamovlarning tadqiqotida<sup>7</sup>, garchi “O‘qituvchi” nashriyotining qirq yillik faoliyati davomida maktab, kasb-hunar ta‘limi va oliy o‘quv yurtlari uchun chop etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari hamda yordamchi adabiyotlar ro‘yxati keltirilgan bo‘lsa-da, mualliflar ushbu jarayonni ta‘lim sohasidagi umumiy islohotlar va tizimli o‘zgarishlar kontekstida ham qisqacha tahlil qilib o‘tganlar. Ularning yondashuvi nashriyot faoliyatining nafaqat statistik ko‘rsatkichlar, balki ta‘lim mazmuni va shakllaridagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq o‘ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur bibliografik ko‘rsatkichda 1936–1976-yillar oralig‘ida “O‘qituvchi” nashriyotida chop etilgan

---

<sup>5</sup> Афанасьев А.М., Думенко М.Ф. Ўзбекистон ССРда 30 йил ичида халқ маорифи эришган ютуқлар. – Тошкент, 1954. – 30 б; О‘sha muallif. Народное образование в Узбекистане в свете решений XXII съезда КПСС. –Ташкент, 1962. – 91 с.; Қодиров Э. Ўзбекистон ССРда халқ маорифининг муваффақиятлари – Тошкент, 1959. – 69 б.; Кадыров И.К. Народное образование Советского Узбекистана. –Ташкент, 1964. –24 с.; Қодиров Э. Ўзбекистонда 10 йиллик умумтаълимга ўтишнинг баъзи бир ақтуал масалалари. –Тошкент, 1969. – 58 б.; Раджабов С. История советской школы в Узбекистане (1917-1941 гг.). Автореф. дисс. ...док. пед. наук. – Москва, 1955. – 782 с.; О‘sha muallif. К истории советской школы в Узбекистане. –Ташкент, 1957. – 103 с.; Шарофутдинова Р. Школьное образование в Узбекской ССР (1917-1957 гг.) –Ташкент, 1961.; О‘sha muallif. Народное образование и педагогическая наука в Узбекистане за 40 лет // Объединенная научная сессия, посвященная 40-летию Узбекской ССР и Коммунистической партии Узбекистана. Тезисы докладов. –Ташкент, 1964. –С.227-232.; Прокофьев А.М. Совет мактаби хозирги боскичда. –Тошкент, 1972. . – 70 с.; Шермухаммедов С. О развитии образования взрослых в Узбекистане и других республиках Средней Азии и Казахстане. –Ташкент, 1972.; О‘sha muallif. О развитии народного образования в советском Узбекистане. –Ташкент, 1971.; Шодиев Ф. Совет мактаби ва педагогик пропаганда. –Тошкент, 1974– 24 б.; Шарипов Ф. Совет Ўзбекистонда халқ таълими системасининг равнақи. –Тошкент, 1977. – 30 б; Мухаммедов С. Культура советского Узбекистана –Ташкент, 1961. – 136 с.; Нажимов Ф. Совет Ўзбекистоннинг социалистик маданиятининг равнақи. –Тошкент, 1978.; Куценко Э.Н. Проблемы повышения качества подготовки специалистов в высшей школе (Из опыта ТашГУ им В.И. Ленина). – Ташкент, 1980. – 83 с. va boshqalar.

<sup>6</sup> Қодиров И.К. Народное образование в Узбекской ССР за 30 лет. – Ташкент: Учпедгиз, 1954–31 с; О‘sha muallif. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. –Тошкент, 1957. – 126 с.; О‘sha muallif. Успехи народного образования в Узбекской ССР. – Ташкент: Госиздат, 1957. – 129 с.; О‘sha muallif. Ўзбекистон ССРда халқ маорифи. – Тошкент: Ўздавнашр, 1961. – 63 б.; О‘sha muallif. Народное образование Советского Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – 81 с.; О‘sha muallif. Развитие школ УзССР в послевоенный период. – Ташкент: Укитувчи, 1965. – 216 с.; О‘sha muallif. Очерки развития общеобразовательной школы в Советском Узбекистане. – Ташкент: Ўкитувчи, 1974. – 212 с.

<sup>7</sup> Дегтяр Б.Т., Хатамов Н.Т. Ўзбекистонда ўқув-педагогика адабиётини нашр қилиш тарихига доир 1936-1975. –Тошкент, 1972.

7249 nomdagi kitob va darsliklar xronologik tartibda keltirilgan. Unda O‘zbekiston SSRda sovet hokimiyati yillarida xalq maorifi sohasida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami, ilgari surilgan vazifalar, ta‘lim standartlarining shakllanishi hamda turli ixtisoslikdagi fanlar rivojiga oid o‘zgarishlar muammoviy yondashuv asosida yoritilgan. Bibliografik manba bu boradagi bosqichma-bosqich islohotlar, ularning mazmun-mohiyati va amaliy natijalarini o‘rganishda muhim ilmiy manba sifatida e‘tiborga molikdir.

O‘zbekistonda sovet hokimiyati yillari davomida ta‘lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar masalasi 1950-yillardan boshlab tarixchi olimlarning ilmiy izlanishlarida bevosita tadqiq etila boshladi. Bu tadqiqotlarda, odatda, O‘zbekistonda maorif va madaniyat rivojlanishi tarixining boshlang‘ich bosqichi sifatida 1917-yil Oktyabr inqilobidan keyingi davr asos qilib olinadi. Tarixiy izlanishlarda madaniyat va maorifning shakllanishi va taraqqiyoti “Oktyabr inqilobi”dan keyingi dastlabki yillar, shuningdek, besh yillik va yetti yillik reja davrlari kesimida o‘rganila boshlandi. Ushbu yondashuv muammoning xronologik chegaralarini belgilash va bosqichma-bosqich o‘zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tarixiy jarayonlarni tizimli va kompleks tarzda o‘rganish imkonini beradi<sup>8</sup>.

S. Sodiqov, X. Zufarov, N. Rahmonov, R. A. Mavlonova, L. Maksakova kabi olimlar tomonidan tayyorlangan ilmiy tadqiqotlarda<sup>9</sup> sovet davrida ta‘lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijalari, shuningdek, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidagi o‘zgarishlar masalalari yoritilgan. Biroq bu tadqiqotlarning aksariyati sovet mafkuraviy paradigmasi doirasida olib borilgan bo‘lib, ularning mazmunida O‘zbekiston SSR ta‘lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning asosan ijobiy jihatlarigina yoritilgan. Shuningdek, ta‘lim tizimidagi muammolar, qarama-qarshiliklar va ularning salbiy oqibatlari haqida tanqidiy-tahliliy yondashuv yetarli darajada aks ettirilmagan. Bu esa, mavjud tarixiy jarayonlarni obyektiv baholash imkoniyatini cheklagan. R. Mo‘yidinov, M. D. Xadjiyeva va N. B. Quvvatovlarning ilmiy tadqiqotlarida<sup>10</sup> O‘zbekiston ta‘lim sohasining tarixiy taraqqiyoti, o‘qituvchilarni tayyorlashdagi bosqichma-bosqich o‘shish jarayonlari

<sup>8</sup> Касьмова М. Из истории развития народного образования в г. Ташкенте в период первой пятилетки // Научные работы и сообщения АН УзССР. Отделение общественных наук. Кн. 4. –Ташкент, 1961. –С. 195-202.; Хушбеков А. Из истории культурного строительства в Узбекистане в годы первой пятилетки. – Самарканд, 1959. – 92 с.; Баратов М. Из истории борьбы за просвещение в Узбекистане. –Ташкент, 1961. – 94 б; Непомнин В.Я. Исторический опыт строительства социализма в Узбекистане (1917-1937). –Ташкент, 1960. – 382 с./; Акилов К.А. Социалистическая культура Узбекистана между XXIII и XXIV съездами КПСС // ОНУ. –Ташкент, –1971. –№9. – С.3-21.; Холбоев С. Становление и развитие университетского образования в Узбекистане. Автореф. дисс. ... канд. истор. наук. –Ташкент, 1974. –30 с.

<sup>9</sup> Садыков С. Очерки развития высшего образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1969. – 229 с.; Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1976. – 176 б.; Мавлянова Р.А. Опыт перестройки начального образования в Узбекистане. – Ташкент: Ўқитувчи, 1983 – 120 с.; О‘sha muallif. Развитие начального образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1985 – 94 с.; Содиков С., Zufarov X. Развитие народного образования в Узбекистане. – Ташкент: Ўқитувчи, 1988. – 13 с.; Максаква Л.П. Демографические проблемы занятости в УзССР. – Ташкент: Узбекистан, 1989. –175 с.

<sup>10</sup> Муйдинов Р. История развития вечерних (сменных) средних общеобразовательных школ в Узбекской ССР (1945-1964 гг.). Автореф. дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1968. – 27 с.; Хаджиева М.Д. Социальное развитие села Узбекистана в конце 70-х и начале 80-х годов: опыт и проблемы: Дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1992. – 200 с.; Кувватов Н.Б. Подготовка и воспитание педагогических кадров в Узбекистане (1980-1990 гг.): Дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1994. – 24 с.

hamda pedagog kadrlar tarkibidagi gender o'zgarishlariga oid masalalar tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlarda ilgari surilgan ilmiy yondashuvlar, asosan, sovet mafkuraviy doirasida olib borilgan bo'lib, tahlil va baholashlarda mavjud ijtimoiy-siyosiy kontekstning ta'siri seziladi. Natijada, ko'tarilgan masalalar, xususan, o'qituvchilar tarkibining sifat jihatidan yangilanishi va gender nisbatidagi o'zgarishlar, ko'proq ijobiylik nuqtai nazaridan talqin qilingan bo'lib, tanqidiy yondashuv yetarli darajada qo'llanilmagan. O'zbekistonning sovet davri tarixiga oid ayrim ilmiy adabiyotlarda<sup>11</sup> ham o'rganilayotgan davrda ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar, pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi hamda xalq ta'limi sohasida amalga oshirilgan islohotlar masalalariga e'tibor qaratilgan. Mazkur manbalarda ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari, ularning mazmun-mohiyati va ijtimoiy-siyosiy sharoitlar bilan o'zaro aloqadorligi muayyan darajada yoritilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda sovet hokimiyati tomonidan ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarning boshlang'ich va o'rta ta'lim, kasb-hunar ta'limi hamda oliy ta'lim tizimiga ko'rsatgan ta'siri masalalari E. Turg'unov, M. Jamolova, T. Egamberdiyeva va G. Qosimova kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida<sup>12</sup> o'z aksini topgan. Ushbu tadqiqotlarda, asosan, urushdan keyingi yillarda ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarishlar, yosh avlodni umumiy o'rta, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalariga jalb etish, ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar jarayoni yoritilgan. Shuningdek, islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy asosi, ularning samaradorligi va mavjud muammolarni bartaraf etishdagi o'rni ham mazkur tadqiqotlarning e'tibor markazida bo'lgan.

Mazkur mavzuga bevosita aloqador bo'lgan ilmiy tadqiqotlarning **ikkinchi guruhini** O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida tarixchi va adabiyotchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tashkil etadi. Ushbu tadqiqotlarda sovet davrida O'zbekiston ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar har tomonlama tahlil qilinib, ularning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda mavjud muammolar ham ilmiy asosda baholangan. Jumladan, O'zbekiston ta'lim tizimida yuz bergan o'zgarish jarayonlari, ta'lim sohasiga doir qabul qilingan qarorlar va ularning hayotga tatbiq qilinishida vujudga kelgan muammolar xususida R.E. Xalikova, K. Ergashev, A. Choriyev, N. Ismatovalarning tadqiqotlarida<sup>13</sup> to'xtalib

<sup>11</sup> Ўзбекистон ССР тарихи. Учинчи том. – Тошкент: Фан, 1971. – 624 б.; Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги даврлардан ҳозирги кунларгача (ЎзССР ФА акад. И.М.Мўминов таҳрири остида). – Тошкент: Фан, 1974. – 658 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.; Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Китоб 2. 1939-1991 йиллар. / Масъул муҳаррирлар Р.Абдуллаев, М.Раҳимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 576 б.

<sup>12</sup> Тургунов Э. Педагогическое образование в Узбекской ССР в послевоенные годы (1946-1970): Автореф. дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1973. – 25 с.; Жамолова М. Подготовка педагогических кадров для сельской школы Узбекистана в условиях перехода к всеобщему среднему образованию. Автореф. дисс. на соиск. ...канд. пед. наук. – Ташкент, 1984. – 34 с.; Эгамбердиева Т.А. Развитие культуры быта села Узбекистана в 70-е годы. Автореф. дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1987. – 24 с.; Косимова Г. Опыт развития народного образования и подготовки кадров в советском Узбекистане и его значение для стран социалистической ориентации (середина 60-начало 80-х). Автореф. дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1989. – 23 с.

<sup>13</sup>Халикова Р.Э. Развитие высшего исторического образования и наука в Узбекистане (на примере исторического факультета ТашГУ 1935-1945 гг.). Автореф. ...дисс. канд. ист. наук. –Ташкент, 1995. -32 б.;

o'tilgan. O'rganilayotgan davrda O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, undagi yutuq hamda muammolar masalalari R.T.Shamsutdinovning ham qator tadqiqotlarida<sup>14</sup> atroflicha yoritib o'tilgan. Xususan, ushbu tadqiqotlarda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, oliy ta'lim tizimining shakllanish jarayonlariga ham qisman to'xtalib, mustaqillik arafasida O'zbekiston ta'lim tizimida vujudga kelgan muammolar ham ochib berilgan. So'ngi yillarda ham sovet hokimiyati davrida ta'lim tizimining turli tarmoqlari, ulardagi inqirozli holatlar, pedagog-o'qituvchilarning jamiyatdagi o'rni va roli masalasiga oid tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, N. Sharipovaning tadqiqotida<sup>15</sup> 1960–1980-yillarda O'zbekiston, xususan, Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida o'qituvchilarning kundalik hayoti tarixi yoritilgan. Muallif ushbu davrda ushbu mintaqalarda faoliyat yuritgan o'qituvchilarning yashash tarzi, ijtimoiy-maishiy sharoiti hamda ularning kundalik faoliyatida uchragan muammolarni tahlil qilgan. Tadqiqotda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos jihatlari va ularning o'z davridagi ijtimoiy mavqei tarixiy kontekstda ochib berilgan. I. Tishabayevaning dissertatsiya ishida<sup>16</sup> esa tadqiqot obyekti Andijon Namangan, Farg'ona oblastlari bo'lgani bois, O'zbekiston SSRning Farg'ona vodiysi oblastlarida ko'rilayotgan davrdagi maktabgacha tarbiya muassasalarining ahvoli, o'sish suratlari, muassasalarning moddiy ta'minoti, kadrlar masalalari yuqoridagi oblastlarga tegishli materiallar asosida yoritib o'tilgan.

**Uchinchi guruh** adabiyotlarga ta'lim tizimi va ushbu sohadagi islohotlar, pedagog-o'qituvchilarning jamiyat hayotidagi o'rni, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonlariga doir masalalarni o'rganishga bag'ishlangan xorijiy olimlarning ilmiy ishlari kiradi. Ushbu tadqiqotlarda ta'lim tizimining rivojlanish bosqichlari, uning ijtimoiy funksiyalari, pedagogik faoliyatning mazmuni va metodik asoslari turli mamlakatlar tajribasi misolida tahlil etiladi. Bu asarlar milliy ta'lim tizimini xalqaro kontekstda baholash hamda qiyosiy tahlil asosida xulosalar chiqarish imkonini beradi. O'rganilayotgan davrda Markaziy Osiyo davlatlari ta'lim tizimi tarixini tadqiq qilishda V.Ullrich va A.Lyudkening tadqiqotlari<sup>17</sup> alohida o'rin

---

Эргашев Қ. Ўзбекистонда халқ таълимининг ривожланиш тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – 68 б.; Чориев А.Х. Народное образование и подготовка педагогических кадров в Узбекистане в условиях советского тоталитаризма: противоречия между системами традиционно-национальной и советской (20-30-е годы). Автореф. дисс. на соиск. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1998. – 27 с.; Исмадова Н. Ўзбекистонда халқ таълими тизимидаги ислохотлар босқичлари ва муаммолар (1991-2021 йиллар): Тарих фан. бўй. фал. док. (PhD) ...дисс. авторефер. –Тошкент, 2022. -54 б.

<sup>14</sup>Шамсутдинов Р.Т. Первенец высшей школы. Краткий очерк истории Андиганского государственного педагогического института им. З.М. Бабура. –Ташкент: Узбекистан, 1989. -183 с.; Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб). – Андижон, 2004. –651 б.; Шамсутдинов Р. Бобур номидаги Андижон давлат университетининг тарихий илдиэлари, ташкил топиши ва фаолияти. –Тошкент: Sharq, 2014. – 544 б.; Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob. –Toshkent: Sharq, 2016. –532 b; Shamsutdinov R., Mo'minov X. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: Akademiashr, 2019. –576 b; Shamsutdinov R. O'zbekiston tarixi. –Toshkent: Ijod-Press, 2024.–512 b.

<sup>15</sup> Sharipova N. Farg'ona vodiysi o'qituvchilarining kundalik hayoti (1946-1991- yillar). Tarix fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...diss. –Andijon, 2023. -156 b.

<sup>16</sup> Tishabayeva I. 1946-1991-yillarda O'zbekiston maktabgacha tarbiya muassasalari tarixi (Andijon, Namangan, Farg'ona oblastlari misolida). Tarix fan. bo'y. fal. dok. (PhD)...diss. –Andijon, 2023. -146 b.

<sup>17</sup> Ullrich V. Spuren im Alltag. «Barfusshistoriker» — woher sie kommen und was sie wollen // Die Zeit. 1981. 2. Nov.; Ullrich V. Entdeckungsreise in den historischen Alltag // Geschichte in Wissenschaft und Unterricht. 1985. H.36. — S 403-414; Ludtke A. The history or everyday life: Reconstructing historical ways of life. — USA: Princeton University Press, 1995. — 336 p.

egallaydi. Bu tadqiqotlarda O‘zbekiston ta’lim tizimining o‘ziga xos jihatlari, malakali kadrlar tayyorlash holati, pedagog-o‘qituvchilarning yashash sharoiti xususida ma’lumotlar keltirilgan. Markaziy Osiyo tarixi bilan shug‘ullanuvchi xorijiy tadqiqotchilarining ham aksariyati o‘z e’tiborini O‘zbekistondagi ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarga ham qaratgan bo‘lib, A. Khalid, D. Nartrop, J. Miller va boshqalarning ishlari shular jumlasidandir<sup>18</sup>. Bu tadqiqotlardan ushbu dissertatsiyada metodologik nuqtai nazardan foydalanildi. S. Akyildiz, G. Gleason, Sh. Powell, D. Abdullah, G. Garding, G. Gleason<sup>19</sup> tadqiqotlarida ham Sovet ittifoqi davrida Markaziy Osiyo davlatlari ta’lim tizimida o‘zgarishlar, transformatsion jarayonlar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Tadqiq etilayotgan mavzuning tarixshunoslik tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar tarixini atroflicha yoritishga bag‘ishlangan maxsus, kompleks ilmiy tadqiqotlar keng ko‘lamda olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidan o‘rin olgan “O‘zbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot (1917-1991-yillar)” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** 1946-1991-yillarda O‘zbekiston SSR ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar, uning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur o‘rganish hamda tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** etib quyidagilar belgilandi:

- Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng xalq xo‘jaligini qayta tiklash yillari va undan keyingi dastlabki o‘n yilliklarda O‘zbekistonda maktabgacha va umumta’lim maktablari ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarni tahlil qilish;

- O‘zbekiston SSRda urushdan keyingi yillarda xotin-qizlarni ta’limga jalb etishda hukumat idoralari va jamoatchilik tomonidan amalga oshirilgan ishlar, sohadagi yutuq va muammolarni ko‘rsatib berish;

- 1960-1980-yillar O‘zbekiston umumta’lim tizimini isloh qilish borasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning natijalarini, umumta’lim maktablari ta’lim tizimidagi muammolarni ochib berish;

- umumta’lim maktablarining o‘qituvchi kadrlar bilan ta’minlanishidagi muammolar, sohaning mablag‘ bilan ta’minlanishidagi yetishmovchiliklar va ta’lim maskanlarining moddiy texnik holatini birlamchi manbalar asosida ochib berish;

---

<sup>18</sup> Northrop D. *Veiled Empire Gender and Power in Stalinist Central Asia*—Cornell University Press, 2004. —392 p.; Khalid A. *Making Uzbekistan nation, Empire, and revolution in the Early USSR* // Cornell University Press, 2015. —444 p. [https:// caa-network.org/archives/](https://caa-network.org/archives/); Miller J. *Soviet cinema: Politics and persuasion under Stalin* /—London: B. Taurus. 2010. —224 p.

<sup>19</sup> Akyildiz S. *Aims, Goals and Implementation of Soviet Education in Central Asia* // *The Eurasia Studies Society Journal*, Vol.1. No.1. Autumn, 2012.14 p.; ‘Learn, learn, learn!’ Soviet style in Uzbekistan: Implementation and planning // *Social and Cultural Change in Central Asia*, 2013.; Powell Sh. *Developments in Central Asian Higher Education* // *World education news and reviews*. 2007.; Abdullah. D. *Dynamics of soviet educational model in Central Asian Republics* // *Journal of Central Asian Studies*, 2016. —P.29-42.; Гардинг Г. Развитие науки и образования в Центральной Азии в 20-50-е годы XX века // *Bulletin social-economic and humanitarian research*. — Rossiya, 2021.; Gleason. G. *Educating for underdevelopment: The soviet vocational education system and its central Asian critics*// *Central Asian Survey*, 2007. —P.60-80.

- O‘zbekistonda hunar-texnika ta’lim maskanlari: bilim yurtlari, kasb-hunar maktablari, texnikumlari ta’lim tizimidagi ijobiy va salbiy holatlarni birlamchi manbalar asosida yoritish;

- respublika oliy ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish;

- tadqiqot yakunida mavzuga oid asosli ilmiy xulosalar va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 1946-1991-yillarda O‘zbekiston SSR ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar masalasi belgilab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** 1946-1991-yillarda O‘zbekiston SSR ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar, qo‘lga kiritilgan yutuqlar va sohada yuzaga kelgan muammolarning sabab hamda oqibatlari kabi masalalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik tamoyili, fanlararo yondashuv, ilmiy bilishning tarixiy-qiyosiy tahlil (*comparative analysis*), dialektik va tarixiylik, muammoli-xronologik, tuzilmaviy tizimli tahlil, og‘zaki tarix (*Oral history*) kabi metodlardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonda 1946-1958-yillarda respublika xalq xo‘jaligini tiklash yillaridagi qiyinchiliklar davrida ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, islohotlarning ittifoq manfaatlaridan to‘liq kelib chiqib amalga oshirilganligi, ta’lim-tarbiya jarayonlarining mafkuralashtirilishi, ta’limning sotsialistik mafkuraga butunlay bo‘ysundirilishi milliylikdan uzoqlashishga olib kelganligi, ta’lim tizimiga ketgan xarajatlarni qoplash uchun 1956-yilga qadar tabaqalashgan holda ta’lim olish uchun to‘lov mavjud bo‘lganligi birlamchi manbalar asosida ochib berilgan;

- 1958-yilda qabul qilingan “Maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tuzilishida, o‘quv rejalari va dasturlariga fan va texnika yutuqlarini olib kirish yuzasidan qilingan o‘zgarishlar jarayonida erishilgan ijobiy holatlar bilan birga, yuzaga kelgan muammolar, belgilangan vazifalarni to‘liq amaliyotga tatbiq qilinmasligi oqibatida ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi orqaga ketish holatlari faktlar asosida dalillangan;

- o‘rganilayotgan davrda respublikadagi maorifchilarning mashaqqatli mehnat faoliyati, ularning oilalari, yashash sharoitlaridagi qiyinchiliklar, og‘ir mehnat sharoitlari, oylab qishloq xo‘jalik ishlariga jalb qilinishlari, maorif xodimlarining fidokorona mehnatlari bilan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlardagi ishtiroki, ta’lim tizimini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi kabi masalalar dalillar bilan asoslangan;

- qayta qurish yillarida umumta’lim maktablari va kasb-hunar bilim yurtlari hamda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq qilinishidagi ijobiy, salbiy holatlar, qabul qilingan qaror va qonunlarning amaliyotga joriy qilinmasligi oqibatida ta’lim tizimidagi orqaga ketish, ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi salbiy omillar birlamchi manbalar asosida aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

- dissertatsiyada O‘zbekistonda ta’lim sifatini yanada oshirish, o‘rta maxsus,

kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayonlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, tahsil oluvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashda ta'lim maskanlarida o'qitish sifatini yanada oshirish, o'quv jarayonini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya maskanlarining moddiy-texnikaviy ta'minotini yaxshilash, o'qitish hamda tarbiya jarayonidagi uyg'unlikni ta'minlash bilan bog'liq amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

- tadqiqotda O'zbekiston SSRda o'rganilayotgan davr sovet hokimiyati yillarida maktab ta'limi, kasb-hunar hamda oliy ta'lim tizimidagi olib borilgan islohotlar va ushbu islohotlarning samaradorlik darajalari, ta'lim tizimidagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularning oqibatlari masalasini qiyosiy-tarixiy uslubda tahlil etish imkonini beruvchi birlamchi manbalar birinchi bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiyada 1946-1991-yillar davriy chegarasida O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar masalalariga doir materiallar O'zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Andijon, Namangan, Farg'ona viloyat davlat arxivlari fondlaridagi hujjatlar, turli statistik ma'lumotlar hamda davriy matbuot materiallari, Andijon viloyatidagi yoshi ulug', o'sha davrda qisman bo'lsa-da, faoliyat ko'rsatgan o'qituvchilar orasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalar asosida tadqiq etilgani va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, 1946-1991-yillarda O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, erishilgan yutuq hamda muammolar tarixiga oid materiallar davriy izchillikda, muammoviy yondashuv asosida tahlil qilindi, ularning sabab va oqibatlari aniqlandi hamda tegishli xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati keltirilgan materiallar va xulosalardan sovet hokimiyati davrida O'zbekiston ta'lim tizimi tarixi bo'yicha oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida maxsus kurslar tashkil etishda, O'zbekiston tarixi fani bo'yicha darslarda, yaratilayotgan o'quv qo'llanmalar hamda darsliklarda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** O'zbekiston SSR ta'lim tizimidagi o'zgarishlar (1946-1991-yillar) tarixini tadqiq etish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

O'zbekistonda 1946-1958-yillarda respublika xalq xo'jaligini tiklash yillaridagi qiyinchiliklar davrida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar, islohotlarning ittifoq manfaatlaridan to'liq kelib chiqib amalga oshirilganligi, ta'lim-tarbiya jarayonlarining mafkuralashtirilishi, ta'limning sotsialistik mafkuraga butunlay bo'ysundirilishi milliylikdan uzoqlashishga olib kelganligi, ta'lim tizimiga ketgan xarajatlarni qoplash uchun 1956-yilga qadar tabaqalashgan holda ta'lim olish uchun to'lov mavjudligi haqidagi tadqiqot materiallaridan Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyining "Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston ta'lim tizimidagi o'zgarishlar: yutuq hamda muammolar" mavzusidagi ekspozitsion rejalarini tuzishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2024-yil 1-martdagi 02-05-734-son ma'lumotnomasi). Mazkur

materiallar O‘zbekiston SSRda sovet hokimiyati yillari ta’lim tizimining ahvolini to‘laqonli anglashga yordam bergan;

1958-yilda qabul qilingan “Maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari tuzilishida, o‘quv rejalari va dasturlariga fan va texnika yutuqlarini olib kirish yuzasidan qilingan o‘zgarishlar jarayonida erishilgan ijobiy holatlar bilan birga, yuzaga kelgan muammolar, belgilangan vazifalarning to‘liq amaliyotga tatbiq qilinmasligi oqibatida ta’lim-tarbiya jarayonlaridagi orqaga ketish holatlariga oid ma’lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 23-apreldagi 02-31-531-son ma’lumotnomasi). Ushbu ma’lumotlar sovet hokimiyati ta’lim tizimidagi siyosatining asosiy mohiyatini tushunish imkonini bergan;

o‘rganilayotgan davrda respublikadagi maorifchilarning mashaqqatli mehnat faoliyati, ularning oilalari, yashash sharoitlaridagi qiyinchiliklar, og‘ir mehnat sharoitlari, oylab qishloq xo‘jalik ishlariga jalb qilinishlari, maorif xodimlarining fidokorona mehnatlari bilan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlardagi ishtiroki, ta’lim tizimini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi kabi masalalarga oid ma’lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2024-yil 23-apreldagi 02-31-531-son ma’lumotnomasi). Taqdim etilgan materiallar ko‘p sonli tomoshabinlarning urushdan keyingi xalq xo‘jaligini qayta tiklash yillarida oliy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi yangi ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lishiga xizmat qilgan;

qayta qurish yillarida umumta’lim maktablari va kasb-hunar bilim yurtlari hamda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq qilinishidagi ijobiy, salbiy holatlar, qabul qilingan qaror va qonunlarning amaliyotga joriy qilinmasligi oqibatida ta’lim tizimidagi orqaga ketish, ta’lim sifatiga ta’sir qiluvchi salbiy omillarga oid nazariy xulosalaridan Andijon davlat pedagogika instituti “Tarix” ta’lim yo‘nalishi talabalariga o‘tilayotgan “O‘zbekiston tarixi” fanida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-iyundagi 03/15-1744-son ma’lumotnomasi). Ushbu ma’lumotlar sovet hokimiyatining ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarida, ya’ni, 1946-1991-yillarda O‘zbekiston SSR ta’lim tizimidagi ijobiy hamda salbiy o‘zgarishlar jarayonining asosiy mohiyatini teran anglash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflar 8 ta ilmiy-amaliy konferensiya, shu jumladan, 6 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 17 ta ish e’lon qilingan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 5 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 146 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, tadqiqotning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O'zbekiston SSRda 1946-1991-yillarda maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi o'zgarishlar”** deb nomlangan. Ushbu bob uch paragrafdan iborat bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyati, 1946-1958-yillarda O'zbekiston SSRda umumta'lim maktablari ta'lim sohasidagi o'zgarishlar va 1960-1980-yillarda umumta'lim tizimi kabi masalalar yoritilgan va tahlil etilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O'zbekistonda sovet hokimiyatining maorif, fan va madaniyat sohalariga yetarli e'tibor qaratmaganini qat'iy tarzda ta'kidlash asossizdir. Garchi bu davrda mafkuraviy bosimlar va qolipga solish siyosati kuchaygan bo'lsa-da, maorif, fan va madaniyat sohalarida ma'lum darajada taraqqiyot kuzatilgan. Biroq bu rivojlanish jarayoni sovet tuzumining ulug' davlatchilik siyosati manfaatlariga bo'ysundirilgan holda kechgan. Mazkur siyosat “baynalmilalchilik” va “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” tamoyillari asosida shakllangan.

O'zbekiston SSRda maktabgacha tarbiya ishlariga berilgan e'tibor natijasida 1955-yil oxiriga kelib davlat byudjeti hisobidan ta'minlanuvchi bolalar bog'chalariga 55,6 ming, ya'ni 1940-yilga nisbatan 1,6 barobar, 1950-yilga nisbatan esa deyarli ikki barobar ko'proq bola qatnay boshladi<sup>20</sup>. 1951-1955-yillar davomida Toshkent shahrida qurilgan bolalar bog'chalari 900 bola qo'shimcha qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan edi. Oltinchi besh yillik (1956-1960-yillar) da qurilgan bolalar bog'chalariga yana 1700 bola qabul qilish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, 1 ming 500 o'rinli bolalar yaslilari qurilgandi<sup>21</sup>.

O'zbekiston SSRda 1956-1960-yillarda davlat tomonidan ajratilgan mablag' hisobiga 21 ming 300 bola sig'adigan bog'chalar qurildi. Bundan tashqari kolxoz va sovxozlar mablag'lari hisobidan qo'shimcha 805 ta yangi bolalar bog'chalari hamda 891 ta bolalar yaslilari qurildi<sup>22</sup>. Bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga ko'proq jalb qilishga harakat qilindi. 1958-yilning oxiriga kelganda

<sup>20</sup> Культурное строительство СССР. – Москва: Госстатиздат, 1956. – С.190-191.

<sup>21</sup> Акрамов З. Ўзбекистон халқ хўжалиги олтинчи беш йилликда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1957. – Б.192.

<sup>22</sup> O'sha joyda. –B.192.

O‘zbekiston SSRda davlat byudjeti hisobidan ta‘minlanuvchi bolalar muassasalarining soni 1332 ta bo‘lib, ularda 81,1 ming bola tarbiyalandi<sup>23</sup>.

KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining “Maktabgacha bolalar muassasalarini yanada rivojlantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarga tarbiya va tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 1959-yil 21-maydagi 558-sonli qarori<sup>24</sup> hamda shunga muvofiq O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Respublikada maktabgacha tarbiya muassasalari ishlarini yanada yaxshilash choralari to‘g‘risida”gi 1962-yil 12-yanvar qarori<sup>25</sup>, O‘zbekiston SSR Ministrlar sovetining “Respublikada maktabgacha tarbiya muassasalar ishlarini yanada yaxshilash choralari haqida”gi 1964-yil 7-mart qarorining<sup>26</sup> hayotga tatbiq etilishi respublikada maktabgacha tarbiya sohasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Yuqorida qayd etilgan qaror va farmoyishlar asosida O‘zbekiston SSRda maktabgacha tarbiya muassasalari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. 1959-yilda O‘zbekiston SSRda bolalar muassasalari soni 1364 ta, ularda tarbiyalanuvchilar 93,4 ming nafarni, 1960-yilda bolalar muassasalari soni 1486 ta, ularda tarbiyalanuvchilar 112,5 ming nafarni, 1961-yilda bolalar muassasalari soni 1962 ta, ularda tarbiyalanuvchilar esa 138,1 ming nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 1962 yilda bolalar muassasalari soni 2228 taga, ularda tarbiyalanuvchilar soni esa 167,9 ming nafarga yetgan edi. 1963 -yilda esa bolalar muassasalari soni 2394 ta, ularda tarbiyalanuvchilar 185,3 ming nafarni, 1964-yilda bolalar muassasalari soni 2432 ta, ularda tarbiyalanuvchilar 212,017 ming nafarni tashkil etgani holda, 1965-yilga kelib bolalar muassasalari soni 3058 taga, ularda tarbiyalanuvchilar 243,000 ming nafarni<sup>27</sup> tashkil etgani ham fikrimizga misol bo‘ladi. 1983-yilda 1975-yildagiga nisbatan 17,8 foizga o‘tib, bu ko‘rsatkich shaharlarda 52 foizni, qishloqlarda esa 29 foizni tashkil etgan. Toshkent, Samarqand shaharlari, Buxoro oblastining yirik sanoat zonalarida, Surxondaryo, Andijon, Namangan oblastlarining yangi o‘zlashtirilgan qishloq joylarida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlari kengaytirish rejalashtirildi<sup>28</sup>.

1945–1946-o‘quv yilidan boshlab respublikada o‘rta maktablar tarmog‘ini qayta shakllantirish va ularning faoliyatini jonlantirish bo‘yicha ishlar boshlandi. Agar 1940–1941-o‘quv yilida o‘rta maktablar soni 475 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1945–1946-o‘quv yiliga kelib ularning soni 849 taga yetgan<sup>29</sup>. 1949-yildan boshlab esa respublikada umumiy yetti yillik ta‘limni amaliyotga keng joriy etish ishlari boshlandi, bu jarayon o‘rta ta‘lim tarmog‘ining rivojlanishiga ham turtki berdi. 1953-yildan e‘tiboran dastlab shaharlarda, keyinchalik esa qishloq hududlarida ham umumiy o‘rta ta‘limga o‘tish jarayoni bosqichma-bosqich ommaviy tus ola

<sup>23</sup> O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 5477-ish, 11-13-varaqlar.

<sup>24</sup> Maktabgacha tarbiya spravocnigi. Asosiy qonuniy va instrukтив хужжатлар. Тузатилган ва тўлдирилган русча 3-нашридан таржима. –Тошкент: Ўқитувчи, 1974. –Б.17-21.

<sup>25</sup> O‘sha joyda, –B.28-29.

<sup>26</sup> O‘sha joyda, –B.37-41.

<sup>27</sup> O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 5483-ish, 1-11-varaqlar.

<sup>28</sup> Абдукаримов М. Оналар ва болалар ҳақида ўйлар // Саодат. – Тошкент, – 1980. – №3. – Б.23.

<sup>29</sup> Қодиров Э. Совет Ўзбекистони халқ маорифи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1964. –Б.21-22.

boshladi<sup>30</sup>.

SSSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 3-iyundagi 2408-sonli Qaroriga ko'ra, majburiy yetti yillik ta'limdan so'ng 8-sinfda o'qishni davom ettirish uchun sinflarning shakllantirishda shaharlarda 35 tinglovchi, qishloqlarda 30 nafar tinglovchi bo'lgan taqdirda sinflarni tashkil etilishi belgilangan edi. Istisno tarzida faqat ishchilar shaharchasi yoki qishloqlarida boshqa bu turdagi maktablar bo'lmasa yoki uzoqda joylashgan bo'lsa, belgilangan sonidan oz bo'lgan taqdirda ham ochishga ruxsat etilgan edi<sup>31</sup>. 1950-yil 25-noyabrdagi SSSR Ministrlar Sovetining № 19362-R qarori asosida O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1950-yil 13-dekabrda № 2142 sonli qarori e'lon qilindi, unga ko'ra 1950-1951-o'quv yilidan respublikadagi 52 ta yetti yillik maktablar o'rta maktabga aylantirildi<sup>32</sup>.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda O'zbekiston SSRdagi umumta'lim maktablarida o'quvchilar sonining o'sishi sust sur'atlarda kechdi. O'quvchilarning umumiy soni 1940-1941-o'quv yili darajasiga faqat 1950-1951-o'quv yiliga kelibgina yetdi<sup>33</sup>. O'zbekiston SSR Maorif Ministrligiga qarashli maktablarda 1950-1951-o'quv yilida 1-11-sinflarida jami 1 187 375 o'quvchi tahsil olgan. Shulardan 985 500 o'quvchi o'quv rejadagi fanlarni to'liq o'zlashtirgani uchun sinfdan sinfga ko'chgan, 149 619 o'quvchi sinfdan-sinfga ko'chirilmagan va keyingi yilga qolib ketgan, 52 256 o'quvchi esa kuzgi imtihonlarga qolib ketgan<sup>34</sup>.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktyabrdagi sessiyasida "O'zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi. Yangi qonunga ko'ra, umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lib qoldi. 1958-1959-o'quv yilida O'zbekiston SSRda maktablar soni 7044 taga va ularning o'quvchilari 1 million 399 ming kishiga yetdi<sup>35</sup>. Maktab o'quvchilari sonining ortishiga qaramay, respublika maktablarida mavjud bo'lgan tizimli muammolar bartaraf etilmadi.

SSSRda 1958-yilda "Maktabning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlash va xalq maorifi sistemasini yanada rivojlantirish to'g'risida" qonun qabul qilindi. Shundan kelib chiqib, 1959-yil martda O'zbekiston SSR Oliy Soveti "Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qildi<sup>36</sup>. Ushbu qonun asosida respublikada xalq maorifi tizimini qayta tashkil etish jarayoni boshlandi. O'rta va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari politexnik yo'nalishga mos ravishda qayta ko'rib chiqildi. Biroq sovet totalitar tuzumiga xos bo'lgan — boshlangan islohotlarni oxiriga yetkazmaslik amaliyoti bu safar ham o'z aksini topdi. Natijada,

<sup>30</sup> Қодиров Э. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. —Тошкент: Ўздавпеднашр, 1957. —Б.45.

<sup>31</sup> О'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 5671-ish, 7-varaq.

<sup>32</sup> О'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 5671-ish, 23-varaq.

<sup>33</sup> Қодиров Э. Совет Ўзбекистони халқ маорифи.... —Б. 22.

<sup>34</sup> О'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 5674-ish, 16-varaq.

<sup>35</sup> Ўзбекистон ССР тарихи. Қадимги даврдан ҳозирги кунларгача. —Тошкент: Фан, 1974. —Б.526.

<sup>36</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. —Тошкент: Шарқ, 2000. —Б.572.

xalq ta'limi sohasidagi tizimli muammolar hal etilmadi va mavjud holat deyarli o'zgarmadi.

SSSR Ministrlar Sovetining 1966-yil 10-noyabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktabi faoliyatini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 874-sonli qarori ta'lim tizimida navbatdagi muhim islohotlarga zamin yaratdi. Ushbu qaror asosida xalq ta'limi sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, yangi maktab binolarini qurish, mavjud o'quv maskanlarida sinf xonalarini ko'paytirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini yangilash va takomillashtirish borasida keng ko'lamlı chora-tadbirlar belgilandi. Shu bilan birga, qarorda o'n yillik majburiy ta'lim tizimini shakllantirish ham ko'zda tutilgan.

XX asrning 70–80-yillarida O'zbekiston maktablarining holati sifat jihatidan deyarli o'zgarishsiz qolgan. Bu davrda ta'lim muassasalari jahon tajribasidan, zamonaviy texnika vositalaridan va ilg'or o'qitish uslublaridan yetarli darajada foydalanmagan. Maktablarning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish borasida sezilarli natijalarga erishilmagan. Biroq son jihatidan o'sish kuzatilgan: maktablar, o'quvchilar va o'qituvchilar soni yildan yilga ortib borgan. Masalan, 1945–1946-o'quv yilida respublika bo'yicha 4 525 ta maktab faoliyat yuritgan bo'lib, ularda qariyb 998 ming nafar o'quvchi ta'lim olgan. 1970–1971-o'quv yiliga kelib esa umumiy ta'lim maktablari soni 7 072 taga, o'quvchilar soni esa 3 million 164 ming nafarga yetgan. Bu ko'rsatkichlar son jihatidan muhim yutuq sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ta'lim sifati va mazmunida islohotlarga ehtiyoj saqlanib qolgan<sup>37</sup>.

To'g'ri, 1984-yilda amalga oshirilgan maktab islohoti natijasida ta'lim tizimida bir qator ijobiy o'zgarishlar kuzatila boshlandi. Jumladan, o'rta maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini oshirish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yo'nalishida muayyan ishlar amalga oshirildi. Mazkur davrda ta'lim jarayoniga elektron-hisoblash mashinalari (EHM), kino, televideniye hamda boshqa texnik vositalarning joriy etilishi o'quv jarayonini modernizatsiya qilishda muhim yangiliklardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Masalan, 1987-yilda respublika maktablarida 10 sinf komplektida „YAMAXA“, 20 sinf komplektida QUVT, 220 ta KEHM „Agat“ 134 EHM DVK -1, 54 DVK- 2 kabi mashinalar ishlatila boshlandi<sup>38</sup>. Mazkur davrda O'zbekistonda xalq ta'limi, tizimida ta'lim-tarbiya oluvchilar soni quyidagi statistik ma'lumotlar orqali aks ettiriladi: 1987–1988-o'quv yilida respublikadagi 8111 ta umumta'lim maktabida 4 million 406,3 ming nafar o'quvchi tahsil olgan. 1990-yilga kelib esa umumta'lim maktablari soni 9 000 taga yetgan<sup>39</sup>.

1985–1990-yillarda O'zbekistonda xalq ta'limi tizimida kuzatilgan muayyan o'zgarishlar, asosan, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining tashabbuslari bilan bog'liq bo'lib, ular ko'proq tashkiliy xarakter kasb etgan. Shu bilan birga, aynan shu davrda ta'lim va tarbiya sohasidagi mavjud ziddiyatlar yanada chuqurlashgan edi. Maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari moddiy-texnik jihatdan yetarli

<sup>37</sup>Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб 1939-1991 йиллар. –Тошкент: O'zbekiston, 2019. –Б. 225.

<sup>38</sup>Эргашев Қ. Ўзбекистон халқ таълимининг ривожланиш тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1998. – Б.53.

<sup>39</sup>Эргашев Қ. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане 70-е-90-е гг.: проблемы и тенденции. – Ташкент, 1996. – С.29.

darajada ta'minlanmagan, natijada ta'lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada pasaygan. Sovet ta'lim tizimi jahon tajriba va andozalaridan chetda qolib ketgan, ilg'or xalqaro tajribalardan foydalana olmagan. Ayniqsa, o'quvchi va talabalarning ijtimoiy faolligi ortib borayotgan bir sharoitda ta'lim mazmunining konseptual darajada cheklanishi xalq maorifi sohasidagi eng dolzarb muammolardan biriga aylangan edi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Xotin-qizlar ta'limi, maktablarning kadrlar bilan ta'minlash holati va ularning moddiy-texnik bazasi”** deb nomlangan bo'lib, unda ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda xotin-qizlarni ta'limga jalb etishda yutuq va muammolar, maktablarni pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalalari va maktablarning moddiy-texnik holati yoritilgan va tahlil etilgan.

1947–1948-o'quv yili boshida O'zbekiston SSRdagi umumta'lim maktablarida 260,7 ming nafar o'zbek millatiga mansub qizlar ta'lim olishni boshlagan bo'lsa, o'quv yili oxiriga kelib ularning soni 231,1 ming nafarga kamaygan. Boshqacha aytganda, 29 ming nafar qiz turli sabablarga ko'ra maktabni tark etgan yoki ta'limni davom ettirmagan. Bu holat ayniqsa Samarqand va Andijon viloyatlaridagi xalq maorifi tizimiga qarashli maktablarda yanada yaqqol ko'zga tashlangan. Xususan, Samarqand viloyatida 9 ming nafar, Andijon viloyatida esa 8 ming nafar atrofida o'zbek qizi maktabga qatnashni to'xtatgan yoki uni butunlay tark etgan. Respublika miqyosida maktabni tark etgan o'zbek millatiga mansub qizlarning aksariyatini 8–10-sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilar tashkil etgan. O'quv yili yakuniga kelib, ularning atigi 22 foizi ta'lim olishni davom ettirgan bo'lsa, qolganlari esa turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida ta'lim jarayonidan chetda qolgan.

O'zbekiston SSRda 1947-1948-o'quv yilida 10-sinfni tamomlagan o'quvchilar orasida mahalliy aholi qizlari butun bitiruvchilarning 29 foizini, 1948-1949-o'quv yilida esa 19 foizni, 1949-1950-o'quv yilida 17 foizni, 1950-1951-o'quv yilida 16 foizni, 1951-1952-o'quv yilida 14 foizni, 1952-1953-o'quv yilida 16 foizni, 1953-1954-o'quv yilida 18 foizni, 1954-1955-o'quv yilida 21 foizni, 1955-1956-o'quv yilida 23,6 foizni, 1956-1957-o'quv yiliga kelib esa 24,5 foizni tashkil etgan edi<sup>40</sup>. Shuningdek, 7-sinfni tamomlagan o'quvchilar orasida esa o'zbek qizlari 1947-1948-o'quv yilida 40 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1956-1957-o'quv yilida 43,4 foizini tashkil etgan edi<sup>41</sup>. Statistik ko'rsatkichlardan kelib chiqadigan bo'lsak, respublika hukumati rahbariyati, o'qituvchilar jamoalari hamda mahalla faollarining sa'y-harakatlari natijasida yildan-yilga qiz bolalarni maktab ta'limiga jalb etish, ularni majburiy ta'lim tizimiga qamrab olish borasida ma'lum ijobiy natijalarga erishilgan.

Qiz bolalarning maktab ta'limini erta tark etishiga turli omillar sabab bo'lgan. Jumladan, o'qitish sifatining pastligi, o'quv anjomlari va darsliklarning yetishmasligi, o'qituvchilar jamoasining o'zlashtirish darajasi past bo'lgan hamda sinfda qolib ketish xavfi yuqori bo'lgan o'quvchilar bilan samarali ishlay olmasligi

<sup>40</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 5702-ish, 18-varaq.

<sup>41</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'yxat, 5702-ish, 18-varaq orqasi.

kabi tizimli muammolar mavjud edi<sup>42</sup>. Ko‘rilgan chora-tadbirlar, olib borilgan targ‘ibot-tushuntirish ishlari hamda jamoatchilikning ta‘lim jarayoniga keng jalb qilinishi natijasida maktablarning yuqori sinflarida tahsil olayotgan mahalliy millatga mansub qiz o‘quvchilar soni bosqichma-bosqich ortib borgan. Bu holat tegishli arxiv hujjatlarida ham o‘z tasdig‘ini topgan. 1945-1946-o‘quv yilida 8-10-sinflarida jami bo‘lib respublika bo‘yicha 28 515 nafar qiz bolalar o‘qigan bo‘lsa, 1956-1957-o‘quv yiliga kelib respublika maktablarining 8-10-sinflarida 80 000 dan ortiq mahalliy millat qizlari tahsil olgan edi<sup>43</sup>.

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston maktablarida o‘qituvchilarning yetishmovchiligi ta‘lim tizimining eng dolzarb muammolaridan biri sifatida yuzaga chiqdi. Bunga asosiy sabab sifatida malakali o‘qituvchilarning urushga safarbar etilgani va ularning ko‘pchiligining jangovar harakatlar davomida halok bo‘lgani ko‘rsatiladi. Jumladan, 1947-yilda O‘zbekiston SSR bo‘yicha 4 ming nafarga yaqin o‘qituvchi yetishmagan. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida respublikada pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘yicha bir qator choralar ko‘rildi. Xususan, qisqa muddatli malaka oshirish kurslari (1–6 oylik), ikki yillik o‘qituvchilar institutlari, uch-to‘rt yillik pedagogika bilim yurtlari, to‘rt-besh yillik pedagogika institutlari va universitetlar faoliyat olib borgan. Ishlayotgan talabalarning ta‘lim olishiga qulaylik yaratish maqsadida ta‘limning kunduzgi, kechki va sirtqi shakllari tashkil etilgan<sup>44</sup>.

1951–1952-o‘quv yilining boshiga kelib O‘zbekiston SSRdagi umumta‘lim maktablarida faoliyat yuritayotgan pedagogik xodimlar, jumladan, maktab direktor va direktor o‘rinbosarlari bilan birgalikdagi umumiy soni 47 421 nafarni tashkil etgan bo‘lib, shundan 18 712 nafari ayollar edi. Ular orasida oliy ma‘lumotga ega bo‘lgan o‘qituvchilar soni 5 543 nafarni (shundan ayollar — 2 419 nafar) tashkil qilgan. Xorijiy tillar fanidan dars beruvchi o‘qituvchilar soni esa 11 146 nafar bo‘lib, ulardan 3 542 nafari ayollar edi. Milliy tarkib nuqtai nazaridan olib qaralganda, o‘zbek millatiga mansub o‘qituvchilar soni 22 210 nafarni tashkil etgan (shundan ayollar — 6 119 nafar). Ular orasida oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar soni 1 559 nafar bo‘lib, shundan 328 nafari ayol edi. Xorijiy til o‘qituvchilari orasida esa o‘zbek millatiga mansublar 4 390 nafarni tashkil qilgan (shundan 1 033 nafari ayollar)<sup>45</sup>.

1975–1976-o‘quv yilida O‘zbekiston SSRdagi umumta‘lim maktablarida jami 197 ming nafar o‘qituvchi mehnat faoliyatini olib borgan bo‘lib, ularning 140 ming nafari oliy ma‘lumotli pedagog kadrlar edi. Bu ko‘rsatkich 1970-yil bilan solishtirilganda, oliy ma‘lumotli o‘qituvchilar soni qariyb 20 ming nafarga ortganini ko‘rsatadi<sup>46</sup>.

O‘rganilayotgan davrida maorif sohasi, xususan, umumta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim yo‘nalishlarining ehtiyojlarini moliyalashtirish masalasida bir qator muammolar mavjud bo‘lgan. Bunga qaramay, respublika rahbariyatining sa‘y-

<sup>42</sup> O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 5702-ish, 30-varaq.

<sup>43</sup> O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 5771-ish, 121-123-varaqlar.

<sup>44</sup> O‘z MA, 2384-fond, 1-ro‘yxat, 6-ish, 264-varaq.

<sup>45</sup> O‘z MA, R-94-fond, 5-ro‘yxat, 5674-ish, 11-varaq.

<sup>46</sup> O‘z MA, R-94-fond, 7-ro‘yxat, 3488-ish, 227-228-varaqlar.

harakatlari bilan yildan-yilga ushbu sohalarga ajratiladigan mablag' miqdorini bosqichma-bosqich oshirishga intilish ko'zga tashlangan. Agarda 1946-yilda Ikkinchi jahon urushidan so'ng respublikada maorif ehtiyojlari uchun ajratilgan mablag'lar 704 909 so'mni (eski bahoda) tashkil qilgan bo'lsa 1948-yilda u 1 008 316 so'mni, 1950-yilda 1 143 967 so'mni, 1951-yilda esa 1 149 165 so'mni tashkil etgan. Bu mablag' 1924-yilga nisbatan 57 marta, urush yillariga nisbatan 25,5 foizga, 1940-yil, urushga qadar bo'lgan davrga nisbatan 103, 8 foizga, qariyb ikki marta ko'p edi<sup>47</sup>. Albatta, respublika maorif tizimi ehtiyojlarini qondirish maqsadida ajratilayotgan moliyaviy mablag'lar yildan-yilga oshib borgan. Biroq ajratilgan mablag'lar mavjud ehtiyojlarni to'liq qoplashga yetarli bo'lmagan, bu esa sohada bir qator tizimli muammolarning saqlanib qolishiga sabab bo'lgan.

1951-1955-yillar oralig'ida ya'ni beshinchi besh yillik davrida respublikada namunaviy loyiha asosida (tipovoy) 28 906 o'rinli 96 ta yangi maktablar qurib, bitkazilgan edi. 1956-yildan 1959-yillar oralig'ida O'zbekiston SSRda davlat byudjeti hisobidan yana 45 800 o'rinli 122 ta yangi maktablar qurilib ishga tushirildi. 1945-1963-yillar oralig'ida O'zbekiston SSRda hammasi bo'lib 490 284 o'rinli 2560 ta yangi maktab qurilgan edi. Jumladan, 84 132 o'rinli 254 ta maktab davlat byudjeti hisobidan qurilib, ishga tushirilgan<sup>48</sup>. Bir qarashda keltirilgan raqamlar urushdan keyingi yillarda maktablarning moddiy-texnik bazasi sezilarli darajada yaxshilangandek va o'quvchilar uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgandek taassurot uyg'otadi. Biroq amalda bu ko'rsatkichlarning o'sishi aholining o'sish sur'atlari va ta'limga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondira olmas edi. Qurilayotgan maktablarning barchasi ham namunaviy loyihalar asosida bunyod etilmagan.

O'rganilayotgan davrda maktablarni zaruriy o'quv-ko'rgazmali vositalar hamda o'quv-xo'jalik asbob-uskunalari bilan ta'minlash yo'nalishida muayyan ishlar amalga oshirildi. Respublika maktablari va maktab-internatlarini kerakli o'quv jihozlari va vositalar bilan ta'minlash maqsadida respublika hamda mahalliy byudjetlardan mablag' ajratish jarayoni faollashdi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarining o'quv-moddiy bazasini mustahkamlashga xizmat qildi. Xususan, Xorazm oblastidagi maktablar va maktab-internatlari uchun 1958–1965-yillar davomida 19 mingdan ortiq sinf partalari, ko'plab o'quv jihozlari, fizika, kimyo va biologiya fanlariga oid qo'llanmalar, shuningdek, o'quv ustaxonalari uchun maxsus jihozlar hamda dastgohlar xarid qilindi. 155 ta maktabda fizika kabineti, 43 ta maktabda biologiya kabineti, 14 ta maktabda mashinashunoslik kabineti, 119 ta maktabda ximiya kabineti tashkil etildi<sup>49</sup>. Ko'plab umumiy o'rta va sakkiz yillik ta'lim maktablarida metall, yog'och hamda boshqa materiallar bilan ishlashga mo'ljallangan o'quv ustaxonalari tashkil etildi.

Biroq, keyingi yillarda xalq ta'limi, o'rta maxsus va oliy ta'lim tarmoqlari asosan qoldiq tamoyili asosida moliyalashtirildi. Bu holat, o'z navbatida, ushbu tizimlarning moddiy-texnik bazasining yetarlicha rivojlanmasligiga olib keldi. Respublikada ta'lim sohasiga ajratilgan kapital mablag'lar dinamikasi bu holatni

<sup>47</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 5674-ish, 18-varaq.

<sup>48</sup> Қодиров Э. Совет Ўзбекистони халқ маорифи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1964. –Б.24.

<sup>49</sup> Билолов Г.М. Хоразм халқ маорифи тараққийси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1969. –Б.67.

yaqqol ifodalaydi. Jumladan, O‘zbekiston SSRda ta’limga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar hajmi 1960-yilda 282 million so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 1970-yilda bu ko‘rsatkich 951 million so‘mga, 1980-yilda 1 milliard 925 million so‘mga, 1985-yilda 2 milliard 619 million so‘mga va 1987-yilda 2 milliard 935 million 50 so‘mga yetgan<sup>50</sup>. Ya’ni, fan, madaniyat va xalq ta’limiga ajratilgan umumiy mablag‘lar davlat byudjetining atigi 2,7 foizini tashkil qilgan xolos<sup>51</sup>. Xulosa sifatida aytish mumkinki, urushdan keyingi dastlabki o‘n yilliklarda, ayniqsa, qiz bolalarni umumiy ta’lim maktablariga jalb etish jarayoni murakkab kechdi. 1940-yillarning ikkinchi yarmi hamda 1950-yillarning boshlarida ota-onalar tomonidan yettinchi sinfni tamomlagan qizlarni maktabda o‘qitmay, ularni majburan turmushga uzatish hollari keng tarqalgan edi. Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida hukumat qator ijtimoiy-iqtisodiy choralarni amalga oshirdi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekiston SSRda o‘rta maxsus va oliy ta’lim sohasida o‘zgarishlar: yutuq va muammolar”** deb nomlangan. Ushbu bobda hunar-texnika va professional ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar, shuningdek, urushdan keyingi xalq xo‘jaligini tiklash davridan boshlab 1990-yillarga qadar oliy ta’lim tizimida erishilgan yutuq va muammolar tahlil qilingan.

1950-yillarda respublika xalq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashda 92 ta texnikum o‘rta maxsus ta’lim tizimida ish olib bordi. 1950-1953-yillarda respublika o‘rta maxsus bilim yurtlarida 19 000 mutaxassis kadr tayyorlandi. Biroq o‘zbek qishloq va shaharlaridagi og‘ir iqtisodiy sharoit mahalliy aholi yoshlari uchun oliy hamda o‘rta maxsus ta’lim olish imkoniyatlarini cheklab qo‘yar, bu esa natijada yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatardi. Xususan, 1950–1953-yillar oralig‘ida oliy ta’lim muassasalarini tamomlaganlarning atigi 30 foizini, o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bitiruvchilarining esa 33 foizini o‘zbek millatiga mansub shaxslar tashkil etgan, xolos<sup>52</sup>.

1960-1970-yillarda hunar-texnika bilim yurtlarini moddiy-o‘quv bazasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. Bu borada, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1960-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbekiston SSR hunar-texnika bilim yurtlarida va ishlab chiqarish korxonalarida malakali ishchi kadrlarni tayyorlashni yanada rivojlantirish va yaxshilash to‘g‘risida”gi hamda 1963-yil 28-iyundagi “Hunar-texnika ta’limini maktab to‘g‘risidagi Qonuni asosida qayta tashkil etish va yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarorlari katta rol o‘ynadi<sup>53</sup>. Hunar-texnika ta’lim muassasalarining moddiy-o‘quv bazasining rivojlanishi o‘quvchilarda, ayniqsa, dastlabki kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Amaliy bilimlar asosan o‘quv ustaxonalarida berilgan bo‘lib, bu yerda olib borilgan mashg‘ulotlar orqali o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar o‘quvchilarning kelajakdagi malaka darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblangan.

<sup>50</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР в 1987 г. Стат. ежегодник. –Ташкент: Узбекистан, 1988. – С.322.

<sup>51</sup> Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихидан материаллар (Учинчи китоб). – Андижон, 2004. – Б.524.

<sup>52</sup> Советская интеллигенция Узбекистана. Кн.2. –Ташкент, 1979. – С.89.

<sup>53</sup> Исмоилов А. Ўзбекистонда хунар-техника таълими. –Тошкент: Ўзбекистон, 1982. –Б.83.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1974-yil 14-martdagi “Mehnatkash va qishloq yoshlarini tarbiyalovchi umumiy oʻrta taʼlim, kechki taʼlimni holati toʻgʻrisida”gi Farmonining, Oʻzbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumining 1974-yil 29-martdagi 21-son qarorini, Oliy oʻquv yurtlari Ministrligining 1974-yil 14-maydagi 276-sonli buyruqlarini ijrosini taʼminlash maqsadida oʻquv yurtlarida tashkil etilgan kechki va sirtqi taʼlim shakllarida mutaxassislar tayyorlashda maʼlum natijalarga erishildi. Xususan, Oʻzbekiston SSRda yangi tashkil etilgan texnikumlarning 27 ta kechki boʻlimlarida 42 ta mutaxassis, 28 ta sirtqi boʻlimlarida 41 ta mutaxassislikda jami 26 086 nafar talabalar oʻqitildi. Keyingi yillarda Toshkent politexnika, Urganch qurilish, Margʻilon xoʻjalik va rejalashtirish, Yangiyoʻl oziq-ovqat, Bekobod sanoat texnikumlari yangi moddiy-texnik baza asosida ochildi<sup>54</sup>.

1980-yillarga kelib, respublikada 112 ta professional-texnika bilim yurtlari faoliyat olib borgan edi<sup>55</sup>. Bu bilim yurtlari respublika xalq xoʻjaligi uchun tokar, slesar, elektr payvandchi, kinomexanik, tikuvchi, poyabzalchi, telefon aloqasi montyorlari, elektr-hisoblash mashinalarini sozlovchi va taʼmirlovchi mexaniklar, kran mashinistlari, quruvchilar va boshqa kasblardagi malakali ishchilarni tayyorlab chiqardilar.

1945-yilga kelib Oʻzbekiston SSRdagi oliy taʼlim muassasalari soni nafaqat urushdan oldingi holatga tiklandi, balki markazdan koʻchirilgan institutlar hisobiga ularning soni uch baravarga ortdi. Talabalar soni esa 19 061 nafardan 21 195 nafargacha yetdi<sup>56</sup>.

Ikkinchi jahon urushi davrida yuzaga kelgan katta insoniy talofatlar natijasida oliy maʼlumotli mutaxassislar soni va sifati sezilarli darajada pasayib ketdi. Bu holat urushdan keyingi davrda oliy taʼlim tizimini jadallik bilan rivojlantirish zaruratini kun tartibiga olib chiqdi. 1945-yil 20-avgustda SSSR Xalq Komissarlari Sovetining № 2888-sonli “Malakali oliy maʼlumotli oʻqituvchilar tayyorlash ishini tubdan yaxshilash toʻgʻrisida”<sup>57</sup>gi qarori eʼlon qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, butun Ittifoq hududida boʻlgani kabi, Oʻzbekiston SSRda ham oliy taʼlim tizimini rivojlantirish yoʻnalishida qator amaliy ishlar amalga oshirildi. 1945-1946-oʻquv yilida Oʻzbekiston SSR Maorif ministrligi tizimida 2 ta universitet, 5 ta kunduzgi va 3 ta kechki taʼlim beradigan pedagogika institutlari faoliyat olib bordi<sup>58</sup>.

Oʻzbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1948-yil 14-yanvarda qabul qilingan “Oʻrta maktablarda chet tillarini oʻqitishni yaxshilash toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, nemis, ingliz va fransuz tillarini oʻqitish boʻyicha dars soatlari koʻpaytirildi<sup>59</sup>. Biroq chet tillariga boʻlgan eʼtiborning ortib borishi bu yoʻnalishda malakali kadrlar – mutaxassis oʻqituvchilar yetishmovchiligi muammosini yuzaga keltirdi. Mazkur masalani hal etish maqsadida 1948-yilda Toshkent davlat chet

<sup>54</sup> OʻzMA, R-2653-fond, 1-roʻuxat, 3105-ish, 60-61-varaqlar.

<sup>55</sup> Василевская А. Хунар-техника билим юртлари ўқувчиларида таълим жараёнида коммунистик муносабатни шакллантириш. –Ташкент: Ўқитувчи, 1982. –Б.138.

<sup>56</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Статистический сборник. –Ташкент, 1967. –С.182.

<sup>57</sup> Oʻz MA, R-94-fond, 5-roʻuxat, 4774<sup>B</sup>-ish, 18-varaq.

<sup>58</sup> Рахманов Н. Развитие народного образования в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1976. – С.54.

<sup>59</sup> Кадилов И.К. Развитие школ УзССР в послевоенный период (1945-1962 гг.) – Ташкент: Учитель, 1965. – С.49.

tillar instituti, 1963-yilda Toshkent shahrida Rus tili va adabiyoti instituti hamda 1964-yilda Andijon davlat tillar pedagogika instituti tashkil etildi.

O'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligini inobatga olgan holda, 1963–1964-o'quv yilida respublikada yana 6 ta yangi pedagogika instituti tashkil etildi<sup>60</sup>. Pedagogika institutlarida ta'lim olish muddati, odatda, 4 yilni tashkil etgan bo'lsa, qo'sh ixtisosliklar bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun bu muddat 5 yil etib belgilangan edi.

1947-1948-o'quv yilida respublika pedagogika oliy o'quv yurtlarida jami 6338 nafar talaba tahsil olgan bo'lib, ulardan 4860 nafari kunduzgi bo'limda, 1478 nafar talaba esa sirtqi bo'limda tahsil olgan. Jami talabalarning 3881 nafari mahalliy millat vakillari bo'lib, kunduzgi bo'limda 3103 nafar, sirtqi bo'limda 778 nafar mahalliy millatga mansub talabalar tahsil olgan edi<sup>61</sup>. Shu o'quv yilida o'qiyotgan talabalarning 2457 nafari rus millatiga mansub talabalar edi<sup>62</sup>.

Oliy o'quv yurtlari hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalariga mahalliy millat yoshlari, ayniqsa uzoq viloyat va tumanlardan kelgan, xususan, qizlarni ta'lim jarayoniga keng jalb etish masalasi o'rganilayotgan davrda dolzarb muammolardan biri bo'lgan. 1950-yilda respublika oliy o'quv yurtlariga 1940-yilga nisbatan 3,5 baravar ko'p talaba qabul qilingan bo'lsa-da, ularning tarkibida qishloq yoshlari salmog'i shahar yoshlari soniga nisbatan deyarli uch baravar kam bo'lgan<sup>63</sup>. E'tiborga loyiq jihatlardan biri shuki, mazkur davrda texnika va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi o'quv yurtlari sezilarli darajada kengaytirildi. Bu holat, avvalo, O'zbekiston SSRning paxtachilikka ixtisoslashuvi bilan bog'liq bo'lib, shu sohaning ehtiyojlari uchun injener-texnik mutaxassislar, mexanizator va agronomlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Aynan shu yo'nalishlarga mahalliy millat yoshlari ko'proq jalb etilgan. 1950-yilga kelib, respublika xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash tizimida 26 ta oliy o'quv yurti va 2 ta universitet faoliyat yuritgan bo'lsa, o'rta maxsus ta'lim tizimi doirasida esa 92 ta texnikum o'z faoliyatini olib borgan<sup>64</sup>.

1985–1991-yillar oralig'ida, ya'ni qayta qurish davrida, O'zbekistonda mutaxassislar tayyorlash tizimiga qator islohotlar kiritildi. Xususan, ayrim mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlov muddati qisqartirildi, yangi yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi, oliy o'quv yurtlarining tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi: yangi institut va universitetlar tashkil etildi, mavjud muassasalarning ixtisoslashuvi o'zgartirildi.

---

<sup>60</sup> Социалистик жамият фахри ва кўрки // Совет мактаби. – Тошкент, –1978 –№5. – Б.6.

<sup>61</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 4987-ish, 29-varaq.

<sup>62</sup> O'z MA, R-94-fond, 5-ro'xat, 4987-ish, 26-varaq.

<sup>63</sup> Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет. Статистический сборник. –Ташкент, 1967. –С.101.

<sup>64</sup> Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939 – 1991 йиллар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2019. –Б.229-230.

## XULOSA

1946–1991-yillar davomida O‘zbekiston ta’lim tizimida yuz bergan o‘zgarishlar tarixiga oid tadqiqot natijalariga tayanilgan holda, o‘rganilgan muammoning ilmiy, amaliy ahamiyati hamda dolzarbligidan kelib chiqib quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda maktablar soni hamda ularda faoliyat olib borgan o‘qituvchilar soni yetarli emas edi. Har bir tuman hududida, ko‘pi bilan, uch-to‘rtta maktab faoliyat yuritgan bo‘lib, ularning aksariyati yetti yillik maktablar edi. Mazkur muassasalarda malakali o‘qituvchilar yetishmasligi jiddiy muammo bo‘lgan, ba’zi fanlar bo‘yicha esa umuman o‘qituvchi yo‘q edi. Maktablarning ayrimlari aholi yashash manzillaridan uzoq masofada joylashganligi sababli, o‘quvchilar ta’lim olish jarayonida u yerda yashab qolishga majbur bo‘lganlar.

2. Urushdan keyingi dastlabki o‘n yilliklarda, ya’ni XX asrning 1960-yillari boshlariga qadar O‘zbekiston SSRda maktab yoshidagi bolalarni, ayniqsa, qiz bolalarni majburiy ta’limga jalb etish jarayoni murakkab kechgan. Bu holatga bir qator omillar sabab bo‘lgan. Jumladan, urushdan keyingi davrda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida ko‘plab bolalar oilaviy ro‘zg‘or ishlariga yordam berishga majbur bo‘lgan. Shuningdek, maktablarning aholi yashash joylaridan uzoqda joylashganligi, o‘quv qurollari va darsliklarning yetishmasligi, ota-onalarning kiyim-bosh hamda o‘quv anjomlarini xarid qilish imkoniyatlarining cheklanganligi ta’limga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

3. Sovet hokimiyatining urushdan keyingi yillardagi ta’lim sohasidagi siyosati mafkuralashtirilgan xarakterga ega edi. Kommunistik mafkura ta’lim jarayoniga chuqur singdirilib, mahalliy aholi bolalarini milliy madaniyat va an’analardan begonalashtirishga xizmat qiluvchi “kommunizm” hamda “rivojlangan sotsializm” kabi ideologik qarashlar asosida shakllantirildi. Ushbu mafkuraviy g‘oyalarni o‘quvchilar ongiga singdirish uchun turli vositalar, usul va chora-tadbirlar keng qo‘llanildi. Maktab ta’limida rus tili va adabiyotiga berilgan ustuvorlik natijasida ijtimoiy fanlar o‘quv dasturida chekinishga majbur bo‘ldi.

4. XX asrning 60-yillaridan boshlab Sovet hokimiyati boshqaruv idoralari va xo‘jalik tashkilotlarida oliy ma’lumotli mutaxassislarning faoliyat yuritishi mahalliy aholi, ayniqsa, o‘zbek millatiga mansub yoshlar orasida ta’limga bo‘lgan qiziqishning ortishiga sabab bo‘ldi. Ushbu omillar O‘zbekiston SSR ta’lim tizimida muayyan siljishlarga, xususan, ta’lim sifati va qamrovi borasida o‘zgarishlarga olib keldi.

5. Ko‘rib chiqilayotgan davrda sovet ta’lim tizimida rus tilini o‘zlashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, rus tilini yaxshi va mukammal egallagan yoshlarni turli darajadagi davlat idoralari hamda mansab lavozimlariga jalb etish siyosati natijasida mahalliy millat vakillari, xususan ota-onalar tomonidan farzandlarini rus tilida ta’lim beriladigan umumta’lim maktablariga yuborish holatlari keskin ortgan. Shu bilan birga, ularni kasb-hunar bilim yurtlari hamda oliy ta’lim muassasalaridagi rus guruhlarida ta’lim olishga undash tendensiyasi

kuchaygan.

6. O'zbekiston SSRda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari ehtiyojidan kelib chiqib, malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida hunar-texnika ta'lim tizimini yo'lga qo'yish va bu borada bir qator o'zgarishlarni amalga oshirishga urinishlar bo'lgan. 1960-yillar butun SSSR hududida bo'lgani kabi, O'zbekiston SSRda ham "Rivojlangan sotsializm" bosqichi deb e'lon qilingan bo'lib, ushbu konsepsiyaga muvofiq mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-ma'rifiy sohalarda islohotlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan edi. Biroq amaliyotda bu rejalar to'laqonli va sifatli bajarilmadi..

7. Ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki o'n yilliklarda o'qituvchilarni uy-joy bilan ta'minlash masalasi bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Xususan, o'qituvchilar sonini ko'paytirish, ularni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va kadrlar barqarorligini ta'minlash maqsadida bir qator imtiyozlar belgilangan. Biroq vaqt o'tishi bilan mazkur qarorlarning ijrosiga sust yondashish, ularni to'liq va samarali amalga oshirmaslik holatlari kuzatila boshlandi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha chiqarilgan xulosalar va tadqiq etilgan masalalar yechimlari quyidagi **taklif va tavsiyalarni** ilgari surishga asos bo'ldi:

1. Rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqotlarida bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlari, undagi yutuq va muammolarni tadqiq etish mavzusi dolzarb tadqiqot obyektiga aylanganini inobatga olgan holda, O'zbekiston SSRda o'rganilayotgan davrning ta'lim tizimida ro'y bergan o'zgarishlar, amalga oshirilgan islohotlar, yutuq va muammolarni tadqiq etish bo'yicha keng miqyosli ilmiy tadqiqotlar olib borish, bu yo'nalishda maxsus sotsiologik kuzatuvlar, so'rovnomalar tashkil etib borish maqsadga muvofiqdir.

2. O'rta ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonida amaliy kasb-hunar yo'nalishlariga yo'naltirishga erishish;

3. Oliy o'quv yurtlari pedagogika, ijtimoiy fanlar ta'lim yo'nalishlarida, aniq fanlar va texnika ta'lim yo'nalishlari ta'lim tizimida 1958-yilgi ta'lim to'g'risida qabul qilingan qonundan keyingi o'zgarishlar, yutuq hamda muammolar tarixini yoritishga bag'ishlangan maxsus kurslar tashkil qilish lozim.

4. Ta'lim tizimi rivojlangan davlatlardagi oliy malakali kadrlar tayyorlash tizimi va ulardagi yutuqlar, ta'lim tizimi xodimlariga yaratilgan imtiyozlar yuzasidan tajriba almashish borasida o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish, O'zbekistonda ta'lim sifati, o'qituvchilar nufuzini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etish va anjumanlarda ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar va mavjud muammolar bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish dolzarb vazifalardan biridir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/31.12.2020.Tar.60.01  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ ЗАХИРИДИНА  
МУХАММАДА БАБУРА**

---

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

**РУЗИКУЛОВ ШЕРЗОДБЕК МАРИБЖОНОВИЧ**

**ИЗМЕНЕНИЯ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ ССР  
(1946-1991 гг.)**

**07.00.01 – История Узбекистана**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ НА СОИСКАНИЕ СТЕПЕНИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Андижан – 2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/Tar1332

Диссертация выполнена в Андижанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (<http://kengash.adu.uz/tarix/>) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Хошимов Соибжон Абдуразакович  
доктор исторических наук, доцент

**Официальные оппоненты:** Бобожонова Дилором Бобожонова  
доктор исторических наук, профессор

Алихожиев Мухаммаджон Одилжон угли  
кандидат исторических наук, доцент

**Ведущая организация:** Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится « 25 » 04 2025 г. в 14.00 часов на заседании Научного совета № DSc. 03/31.12.2020.Tar.60.01. при Андижанском государственном университете имени З.М.Бабура. (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Здание Исторического факультета Андижанского государственного университета, 1-этаж, аудитория 108. Тел.: (0374) 225-73-21; факс: (0374) 225-73-21; e-mail: [agsu\\_info@edu.uz](mailto:agsu_info@edu.uz) Андижанский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре имени З.М.Бабура Андижанского государственного университета (зарегистрировано за № 2043A). (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Университетская, 129, здание ИРЦ.Тел.: (0374) 225-84-33; Факс: (0374) 225-88-30.

Автореферат диссертации разослан « 10 » 04 2025 года.  
(реестр протокола рассылки № 37 от « 08 » 04 2025 года).



*[Signature]*  
**Р.Т. Шамсутдинов**  
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор

*[Signature]*  
**М.О. Алихожиев**  
Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, кандидат исторических наук, доцент

*[Signature]*  
**У.С. Абдуллаев**  
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор исторических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В процессе глобализации возрастает интерес к изучению истории регионов с богатым и прекрасным культурным наследием. В настоящее время происходят национальные этнические конфликты, столкновения, угрозы, вооруженные вторжения, военные конфликты, пандемия (эпидемия), международный терроризм, шовинизм, религиозный экстремизм, фундаментализм, идеологическая борьба. В этих опасных условиях наличие собственной национальной идеологии и стратегии развития стало жизненной необходимостью для каждого государства. Борьба с деструктивными идеями как никогда актуальна. В этом огромна роль сферы образования, что сегодня признают все страны мира. В связи с этим в последние годы в мире становится все более актуальным вопрос изучения истории образования и его развития.

В настоящее время в ведущих научных центрах мира ведутся фундаментальные исследования, направленные на всестороннее и объективное освещение политико-социальных процессов, происходивших в союзных республиках в период советской власти, их культурной жизни, а также позитивных изменений в системе образования. Наряду с этим особое внимание уделяется изучению негативных аспектов, сформированных под влиянием социалистической идеологии. Эти научные изыскания служат важным источником для восстановления исторической истины и анализа развития системы образования в условиях политико-идеологического давления. Наиболее важно то, что в зарубежных научных исследованиях всё более актуальным становится необходимость объективного и беспристрастного анализа как положительных, так и отрицательных сторон системы образования советского периода с позиции исторической истины. С этой точки зрения изучение изменений, достижений и существующих проблем, происходивших в системе образования Узбекистана в период с окончания Второй мировой войны до обретения независимости, приобретает важное научно-практическое значение. Научное осмысление данных вопросов и внедрение выработанных выводов в практику играет существенную роль не только в адекватной оценке исторических процессов, но и в формировании современной и будущей образовательной политики.

На сегодняшний день, в процессе строительства демократического общества и правового государства в Узбекистане, изучение истории нашей Родины за годы Советской власти, извлечение из нее соответствующих выводов и уроков, вооружение всей нации, особенно молодежи, реальной историей поднялось на уровень государственной политики. Как отметил Президент Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёев, “в великой истории ничего не проходит бесследно. Наследие хранится в крови, исторической памяти народов и проявляется в их практической деятельности. Поэтому оно сильно. Сохранить, изучить и передать историческое наследие из поколения в поколение является одним из важнейших приоритетов государственной

политики”<sup>1</sup>. Также еще более важно на глубокой научной основе объективно и справедливо изучить достижения и проблемы в системе образования Узбекистана в годы советской власти, сделать соответствующие выводы и извлечь уроки из его положительных и отрицательных сторон в период сегодняшних реформ в образовательном процессе. Именно в этом и состоит актуальность темы и необходимость изучения вопроса на основе нового подхода и взглядов.

Данная диссертация в определенной степени служить претворению в жизнь задач, выдвинутых в Законе Республики Узбекистан № ЗРУ-637 от 23 сентября 2020 года «Об образовании»<sup>2</sup>, Указе № УП-6097 Президента Республики Узбекистан от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года»<sup>3</sup>, Указе № УП-60 Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»<sup>4</sup> и многочисленных постановлениях и указах правительства республики по развитию образования, научно-исследова-тельской и инновационной деятельности в республике, научного изучения, пропаганды и обогащения богатой истории, материального и культурного наследия нашего народа.

**Соответствие исследований приоритетам развития науки и технологий республики.** Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями науки и технологий в республике I. «Формирование системы инновационных идей социального, правового, экономического, культурного, духовно-нравственного развития информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Степень изученности проблемы.** Источники и литературу, опубликованные по истории изменений в системе образования Узбекской ССР, условно можно разделить на **три группы**:

1. Литература, изданная в период советской власти;
2. Научные исследования, опубликованные в Узбекистане в годы независимости;
3. Научные труды, изданные в зарубежных странах.

Литература, относящаяся к **первой группе**, охватывает научно-исследовательские работы, созданные в советский период. В большинстве этих исследований освещаются реформы, проведенные в сфере образования в изучаемый исторический период, их результаты, а также структурные изменения в системе образования и процессы подготовки квалифицированных кадров. В указанных источниках с научной точки

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – Б.29.

<sup>2</sup> Закон Республики Узбекистан “Об образовании” от 23 сентября 2020 г // <https://lex.uz>.

<sup>3</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 октябрдаги “Илм-фанни 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-6097-сонли Фармони. // Халқ сўзи, 2020 йил 30 октябрь, №229 (7731).

<sup>4</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» ги Фармони//<https://lex.uz/docs/3107036>

зрения анализируются основные направления образовательной политики того времени, механизмы их практического воплощения, а также влияние социально-экономических факторов на данные процессы.

